




МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИMLEНДИРИЎ

илимий-методикалык журнал № 3/2



Нөкис - 2021

МУГАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 3/2 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӨЛЕҮОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРТАШЕВА

Шөлкемлестириўшилер:

**Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириў
Министрлиги, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы**

Өзбекстан Республикасы

**Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сөз хәм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00**

**e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

Журналға келген мақалаларға жуўан қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим хәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жуўапкер.

МАЗМУНЫ

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ, ТАСВИРИЙ САНЪАТ

Ҳоҷиев Р. Б., Норбоева Д.О. Ёшлар ижтимоий фаоллигини ривожлантириш концепциялари	4
Ismatov U.Sh. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini turli grafik materiallarda ishlashga o'rgatish (tempera bo'yog'i misolida)	12
Berdiyev O. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida o'quvchilar duch keladigan ayrim masalalarning amaliy faoliyatdagi yechimlari	15
Baymetov B.B., Xamroqulova M. Talabalarni boshshaklini tasvirlashga o'rgatishda konstruktiv qurilish qonuniyatlaridan foydalanish texnologiyalari	18
Abduxamidov S.M., Shadiyev A.Ya. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning bugungi kundagi o'rni	22
Ismatov U.Sh. Rangtasvir mashg'ulotlarida maishiy janrning ifodalanishi	25
Марасулова И.М., Зулфиев Р.Н. Ўқувчилар таълим-тарбияси жараёнида тасвирий санъат ўқитувчисининг ўрни	28
Абдуллаева Г.С. Формирование ключевых компетенций у студентов с особыми образовательными потребностями через применение ИКТ	31
Мухитдинова М.С. Нуткида оғир нуксон бор болалар билан коррекцион-ривожлантирувчи ишларни олиб боришда мусика машгулотларининг имкониятлари	35
Султанов Х.Э., Марасулова И.М., Юнусова К.Х. Педагогик инновацион кластери: Чирчиқ тажрибасининг илк натижалари	37
Султанов Х.Э., Махмудов М.Ж. Ўқувчиларни тасвирий санъат фанига қизиқтиришдаги ўқитувчининг маъсулияти	42
Каюмов Х. А., Ко'киев В.В. Quruvchi muhandislarni tayyorlashda muhandislik grafikasi ta'limini kompyuter texnologiyasi bilan integrasiyalash	46
Махмудова М.Т. Развитие музыкальной тематики и ее актуальность в изобразительном искусстве Узбекистана	48
Марасулова И. М. Эстетическое воспитание молодежи для общества	52
Sobirov S.T. Bolalar uchun nashrlarda illyustratsiyalarning vazifalari	54
Sobirov S. T. Talabalarda yuksak axloq, kasbga sadoqat kabi insoniy fazilatlarini shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda to'garaklarning o'rni	59
Муратов Х. Х. Ўқув жараёнида мустақил таълимни ташкил этиш ва бошқаришнинг долзарблиги	61
Атаханова С.О. Масофали ўқитиш технологиясининг чизмачиликни ўқитишдаги амалий аҳамияти	65
Атаханова С.О. Чизмачилик фани бўйича ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштиришда муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш омиллари	69
Султанов Х.Э. Таълим муассасалари ҳамкорлигининг кластерли моделини ташкил этиш	73
Ко'киев В.В. Yordanchi proyeksiyalash usulidan foydalanib yaqqol tasvir qurish	76
Махмудова М.Т. Влияние музыки на изобразительного искусства	81
Махмудова М.Т. Роль и значение музыки в воссоздании изображения	85
Ко'киев В. В., Mahmudov M. J. Ijodkorlikni rivojlantirish chizama geometriya fani misolida	88
Ко'киев В. В., Qozoqboyeva D. T. Yordamchi proyeksiyalash usuli orqali yechiladigan masalalar	91

Jumayev I.O. Chizmalarni AutoCAD dasturida chizishda dasturning mavjud murakkabliklarini qo'lda chizishga moslashtirish (o'rgatish) usullari	94
Jumayev I.O. Muhandislik grafikasi fanlarida uch o'lchamli fazoni Auto CAD dasturidan foydalanib qo'llash usullari va ahamiyati	99
Xalimov M., Bekqulov Q. Chizmachilik fanini o'qitishda interaktiv metodlarni qo'llash zaruriyati	102
Bekqulov Q.Sh. O'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolarni tizimga solish va prognoz qilish oldini olish choralari	105
Bekqulov Q.Sh., To'laganova H. Muhandislik grafikasi fanlarida talabalar chizma bajarishda yo'l qo'yadigan tipik xatolar	107
Bekqulov Q.Sh., To'laganova H. Chizmachilik fanidan o'quvchilarning fazoviy tasavvurini oshirishda tugallanmagan chizmalardan foydalanish	111
Bekqulov Q.Sh., Boizaqova Sh.A. Muhandislik grafikasi fanlarini boshqa fanlar bilan bog'liqligi	113
Boizaqova Sh.A., Bekqulov Q.Sh. Ko'rinishlar mavzusini tushuntrishda detal modelini o'ziga qarab o'rganishning ahamiyati	117
Анкабаев Р. Т. Тасвирий саънатда машгулотларида иллюстрация ўргатишнинг аҳамияти	120
Бахриев И.С. Бўлажак тасвирий саънат ўқитувчиларини касбий тайёрлашда композиция фанининг назарий асослари	122
Атажанова Р. Р. Возможности уроков изобразительного искусства в развитии творческих способностей младших школьников	126
Бахриев И.С. Бўлажак тасвирий саънат ўқитувчиларини касбий тайёрлашда композиция фанини ўқитилишининг амалиётдаги ҳолатини ўрганиш	128
Xalimov M. Chizmachilik fanini o'qitishda interaktiv metodlarni qo'llash zaruriyati	133
Achilov N. N. AutoCAD dasturi yordamida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yaqqol tasvirlarni bajarish asosida	136
Анкабаев Р.Т., Миржалилов М. Б. Тасвирий саънатда машгулотларида миниатюрани ранг тасвирини ўргатишнинг аҳамияти	141
Achilov N. N. Ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda talabalarda ijodiy qobiliyat va dars samaradorligini oshirish yo'llari	145
Saydaliyev S.S., Nig'manov B.V., Achilov N.N. Arxitekturada inson va fazo	149
Ҳожиёв Р. Б. Норбоева Д.О. Ёшларнинг ижтимоий қатлам сифатида мавжудлигининг онтологик асоси	155

ное орудие с помощью которого, можно привести, подвести человека к познанию искусства.

Эстетическое воспитание- это целенаправленный процесс формирования творчески активной личности, способной воспринимать и оценивать прекрасное, совершенное, гармоничное явления в жизни, природе искусстве, жить и творить» по законам красоты.» Большой вклад в воспитании человека будущего т.е. гармонично - развитого поколения зависит от нас - педагогов. Чем раньше мы увидим и поседем красоту в душе маленьких людей тем раньше мы получим гармонично развитое общество.

Литература:

1. Султанов Х.Э. Педагогик инновацион кластер ҳамкорлигида илмий-амалий семинарларнинг аҳамияти / Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў илимий-методикалык журнал. №4// -2020: Б.-78-85;
2. Султанов Х.Э. Узлуксиз таълим тизимида ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш (таъбири санъат дарслари мисолида). //“Замонавий таълим” илмий-оммабоп журнали, №4, 2016. -14 б;
3. Максимов Ю.В. «Родник творчества» М.-1980г. Просвещение;
4. Виноградова Г.Г. «Изобразительное искусство в школе» М. Просвещение-1990;
5. Хасанов Р.Х. «Методические основы художественного образования и воспитания учащихся» Т. «Фан»-1990;
6. Марасулова И.М. «Роль искусства в развитии чувств прекрасного в становлении человека» конференция Т-2019;
7. «Педагогические основы использования искусства в подготовке будущего учителя». Т.Укутувчи»-1992;
8. Лихачев Б.Т. «Теория эстетического воспитания школьников» М. Просвещение-1985;

РЕЗЮМЕ

Maqolada inson uchun estetik tarbiyaning jamiyat uchun ahamiyati haqida soʻz boradi. Shuningdek, muallif taʼlim muassasalarida ushbu muammoni hal qilish toʻgʻrisida oʻz fikrlarini bildirdi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается значение эстетического воспитания человека для общества. Также автор изложил мнение по решению этой задачи в образовательных учреждениях.

SUMMARY

The article discusses the importance of aesthetic education of a person for society. Also, the author expressed his opinion on solving this problem in educational institutions.

BOLALAR UCHUN NASHRLARDA ILLYUSTRATSIYALARNING VAZIFALARI

Sobirov S.T.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti “Sport va chaqiriqqacha harbiy taʼlim” fakulteti “Tasviriy sanʼat” kafedrasida katta oʻqituvchisi

Tayanch soʻzlar: illyustratsiya, idrok, kognitiv, toʻldiruvchi, tarbiyaviy, estetik, yosh xususiyatlari, illyustrator, estetik vazifa, muxarrir, nashriyot, gʻoya, idrok.

Ключевые слова: иллюстрация, познание, познавательная, дополнительная, образовательная, эстетическая, возрастные характеристики, иллюстратор, эстетическое задание, редактор, издатель, идея, познание.

Key words: illustration, cognition, cognitive, complementary, educational, aesthetic, age characteristics, illustrator, aesthetic task, editor, publisher, idea, cognition.

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson darajasida tarbiyalash borasidagi mavjud muommolarni xalq etish ta'lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish murakkab jarayon bo'lib, qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk vakillari jalb etiladi. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Ilyustratsiyalar ishlashda bolaning yosh xususiyatlarini, idrokining o'ziga xos xususiyatlarini va kitobning bolaga ta'sir etish vazifasini hisobga olish kerak.

Ilyustratsiya kitob mazmuni va matnini yetkazishda, kognitiv, tarbiyaviy, estetik va birlirini to'ldiruvchi vazifalarni bajaradi.

Kognitiv vazifasi predmet va hodisalarning tan olinishiga yordam beruvchi atrof olam voqealiklarini illyustratsiyalarda aks ettirish orqali ta'minlanadi.

Ta'limiy vazifasi illyustratsiyalarning kitob mazmunining asosini tashkil etuvchi ta'limiy g'oya bilan bog'liq. Ilyustratsiyada aks etgan muayyan holat o'quvchi tomonidan matndan ko'ra aniqroq tushunilib, ko'rgazmalilik orqali shaxsning emotsional sohasiga ta'sir etib, belgilar va ularning harakatlariga muayyan munosabatni shakllantiradi. Bu yerda illyustratsiya bolaga bu holat kitob matnida qanday taqdim etilishidan qat'iy nazar, vaziyatga umumiy baho berishni taklif qiladi. Bundan tashqari, ta'lim funktsiyasi sodir bo'lmagan hodisalar va shaxslar o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Axloqiy va estetik tarbiyada badiiy tasvirning ahamiyati A. I. Herzen, V. G. Belinskiy va N. G. Chernishevskiy tomonidan qayd etilgan. Misol uchun, V. G. Belinskiy shunday deb yozgan edi: «Qarang bolalar kitobdagi suratlarga qanchalik chanqoq! Agarkitobdagi suratlar matn mazmunini tushuntirib bera olsa, ular zerikarli matnni ham o'qishga tayyor».

K. D. Ushinskiy –Bolalarni o'qitish va tarbiyalash vositasi sifatida illyustratsiyalarni ko'rib chiqdi va illyustratsiyalar o'zida bilim va badiiy tamoyillarni aks ettirish zarurligini ta'kidladi.

Estetik vazifasi uning bajarilish sifati bilan belgilanadi va bu yerda badiiylik mezonini muhim baholash mezoniga aylanadi. Ko'plab buyuk rassomlar o'z iste'dodini bolalar kitoblarida aks ettirdilar, bu esa o'quvchilarni yuksak san'at asarlari bilan tanishtirdi. Biroq, qator yorqin, yuqori badiiy nashrlar bilan birga, o'quvchi yosh xususiyatlarini hisobga olmagan, beparvolik, nomuvofiqlik bilan bajarilgan dizaynli va bir qator qiziqarli bo'lmagan kitoblar ham nashr qilingan.

Ilyustratsiyalarning to'ldiruvchi vazifasi - tasvirning matn haqidagi tushunchani kengaytirishi, biror qismni butun chegaralar doirasida ko'rsatish yoki aksincha, butunini butlovchi qismlar sifatida ifodalash qobiliyatiga bog'liqdir. Bundan tashqari, illyustratsiyalar o'quvchi uchun qo'shimcha tajribalarni shakllantirishga yordam beradi, bu esa bolalar uchun nashr qilingan kitoblarning shaxsning hissiy sohasiga ta'siri imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kitob mazmunini idrok etishda illyustratsiya shu qadar ahamiyatliki, ba'zan kitob matnni yozish bilan emas, balki illyustratsiya tayyorlash bilan boshlanadi. Kitobning illyustratori matnni sharhlash zaruriyatiga duch keladi va u tasvirlagan illyustratsiyaga qarab kitob matnini yaxshiroq tushunish imkoniyati deb ta'kidlash mumkin.

Bolalar kitoblariga ishlangan illyustratsiyalarning bolalarga beradigan kayfiyat eng muhimi hisoblanadi. Asar yoki ertak qahramonlarining g'amgin, kulgili, istehzoli, jiddiy kayfiyatlari illyustratsiyalar orqali osongina idrok etilib, kitobxonga u yoki bu qahramonga

qanday munosabatda bo'lishni ko'rsatib turadi. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalar ertak mazmunini illyustratsiyasiz to'liq tushunmaydilar. Bolalar kitoblariga chizilgan illyustratsiyalar o'quvchining ertak yoki masal mazmunini nozik tushunish uchun yordam berishi mumkin.

Bolalar uchun illyustratsiyalar tayyorlashda bolalarni yaxshilab o'rganish va ularga ehtiyohtkorona e'tibor berishni talab qiladi. Ilyustratsiyalarni nashrga tayyorlashdan oldin rassom asarni o'qib chiqishi kerak. Rassom va muharrir birgalikda tasvirlash g'oyasini ishlab chiqadi: illyustratsiya va turli bezak elementlari yordamida asar mavzusi va g'oyasi aks ettiriladi. Keyin illyustratsiyalar sonini aniqlash kerak. Bolaning yoshi qancha kichik bo'lsa, shuncha ko'p tasvir bo'lishi kerak. Masalan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun-rasm kitoblar va vizual nashrlar nazarda tutilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari xilma-xillikni yoqtiradi. Ilyustratsiyalar ishlashda asosiy belgilar, atrof-muhit (shahar, qishloq, xona, va boshqalar)ga etibor qaratish kerak. Matn va illyustratsiya o'zaro aloqada bo'lishi kerak. Yosh o'quvchilar uchun yozilgan asarlarda illyustratsiyalar barcha belgilar asosida chizilgan bo'lishi kerak. Katta odamlar uchun illyustratsiyalar umumlashtirilishi mumkin, barcha belgilarga alohida etibor berib tasvirlanishi shart emas yoki ularni umumlashtirib tasvirlash mumkin.

Aynipaytda, grafika san'atining o'ziga xos murakkabliklari ham mavjud. Bir qarashda juda oddiy tuyulgan bu tasviriy san'atning turi aslida undagi shartliliklar tufayli murakkabdirlar. Undabir rang bilan, odatda, qora rang bilanchiziqlarvositasida oq-qog'ozsathida rang vauningtuslari, borliqdagivoqevahodisalar tasvirlanadi.

Bolalar uchun nashrlarda kitobdagi bezaklar va illyustratsiyalar rangli yoki oq-qora bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar kitoblari rangli nashr qilingani maqul, lekin oq-qora rangda ishlangan illyustratsiyalar ham mazmun va ertakdagi kayfiyatni ochib bera olsa shuning o'zi yetarli. Asl voqeelikni aks ettirish muhim ahamiyatga ega.

Bolalar uchun nashr qilinayotgan kitob to'plam bo'lsa ham, betartib bo'lmasligi uchun illyustratsiyalar bitta rassom tomonidan tayyorlanishi ta'minlanishiga harakat qilishimiz kerak. Muharrir tasvirni-ranglar sxemasining realizmini, shakllarning xaqqoniy ekanligini baholay olishi kerak. Yosh bolalar uchun tasvirning asosiy qismiga urg'u berish kerak. Asosiy unsurlar atrofida bo'shliq bo'lishi kerak. Kichik yoshdagi o'quvchiga asosiy narsa ajratib ko'rsatilmas ekan-hamma narsa uning uchun muhim bo'lib ko'rinadi va asosiy mazmundan chalg'ib ketadi. Birinchi yoki ikkinchi rejadagi belgilar va umuman atrof dagilar bo'lishi kerak. Birinchi navbatda biz g'oyaga e'tibor qaratishimiz kerak. Bolalar uchun nashrlarda illyustratsiyalarning aniqligiga etibor qaratishimiz lozim – ertakda yettita echki bor deyilsa, yettita echki bo'lishi kerak.

Har bir yosh guruhida rasm chizish va tasvirlashni idrok etish o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Maktabgacha yoshdagi bola eng avvalo atrof dagi narsalarga, eng oddiy hodisalarga qiziqadi. Bola e'tiborini atrof dagi narsalarga odamlar va hayvonlarning rasmlariga qaratadi. Bolalar kattalardan asosiyni ikkinchi darajadan ajrata olmasligi bilan farqlanib turadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiq-fakt va taassurotlarni bevosita taqqoslashga asoslangan mantiq bo'ladi. Shu sababli bunday o'quvchilar uchun illyustratsiyada ko'pincha detallar o'rnatiladi va tasvirlar umumiy tarzda tuziladi.

Maktabgacha yoshdagi bola tomonidan rasm va illyustratsiyalar voqelikning aniq in'ikosi

sifatida, deyarli voqelikning o'zi sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun tasvirlar tanib olinadigan va tushunarli, statik bo'lishi kerak.

Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar harakat dinamikasiga qiziqadilar.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar o'z atrofidagi dunyo haqidagi ma'lumotlarga, qahramonlarning harakatlariga baho berishga moyil bo'lishadi. 12-13 yoshli bolalar voqea va hodisalarning asl mohiyatiga qiziqadilar. Bu rassomga voqeani ikki va undan ortiq illyustratsiyada mantiqiy taqdim etish yo'li bilan boshlanishi va oxiri, sababi va ta'sirini bog'lash, nafaqat tashqi tomonini, balki hodisaning mohiyatini ko'rsatish imkonini beradi. Bu yoshdagi bolalar uchun illyustratsiyalar mazmuni ularning qaxramonlar haqidagi g'oyalari bilan bog'liq.

Ilyustratsiyaning umumiy tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Afsuski, muharrirlar har doim illyustratsiyalar mavzularini aniqlashda ishtirok etmaydi va chizmalarni baholash va tanlash jarayoning eskizlarni topshirish bosqichida ishtirok etadi.

Ilyustratsiyalarda qaxramonlarning kayfiyatini ochib berish, ularning xatti - harakatlarning ayrim, matn bilan ifodalab bo'lmaydigan jihatlarini ko'rsatish mumkin.

Badiiy asarlardagi illyustratsiya matn bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning mazmunini tushunishga yordam beradi. Bolalar kitobida bunday illyustratsiyalarning asosiy vazifalari informatsion va qo'shimcha hisoblanadi. Rasm chizish bolaga tasavvur qilishga, voqealarni ochib berishga yordam beradi. Ilyustratsiya asar qaxramonining kiyimini, manzarasini, shahar yoki qishloqning ko'rinishini ko'rsatib berdi va bolani kitobda tasvirlangan dunyoni ko'rgazmali aks ettirish bilan tanishtiradi.

Ilyustratsiya bilan matn o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda detallarga alohida e'tibor berish kerak. Masalan, qahramon kiyimini tasvirlashda illyustrator yorqin ranglardan (qizil, sariq) foydalanish kerak. Qahramonlarni oq-qora rangda tasvirlamaslik yaxshiroqdir. Bolalar aniq detallarga munosabat bildirib, ularni osongina tanib oladilar va ular asosida predmetlar, hodisalar va belgilarni aniqlaydilar. Shu sababli detal ko'rgazmali bo'lishi va matnni illyustratsiyaga bog'lashi kerak.

Badiiy asarlar va ertaklarda matn mazmunini tushunishga uni to'ldirishga, matnda to'liq xarakteri ochib berilmagan qahramonlar xarakterini ochib berishga illyustratsiyalar yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qahramonlar xarakterini idrok qilish ba'zan qiyin bo'ladi. Hikoya yoki ertakning mazmunini ifodalovchi illyustratsiya bolaga hikoyaning mantiqiy bo'lishiga yordam beradi.

Bola yorqin, rang-barang tasvirlardan xursand bo'ladi, boladagi samaradorlik, rasmga o'yin munosabatida bo'lish bilan ajralib turadi. Shunga qaramay bolalar rasmdagi asosiy narsani qiynalib ajratadi, aksariyat hollarda tafsilotlarni nomma-nom sanab berishi mumkin, lekin asl mazmunini to'liqligicha idrok eta olmaydi.

O'quv kitobidagi tasvir bolalarning atrofida dunyo haqidagi bilim va tasavvurlar tizimini shakllantiruvchi matn bilan birga kognitiv, to'ldiruvchi va estetik vazifalarni ham bajaradi. Demak, bolalarning barcha badiiy va o'quv kitoblarida tasvir va illyustratsiyalar bor. Ularning vazifalari xilma-xildir. Ular matnni tushuntirishga ko'maklashadi va o'quvchi mazkur tushunchalar bilan tanishishini osonlashtiradi. Misol uchun, «Ur to'qmoq» ertagini o'qiyotgan o'quvchi to'qmoqning qanaqa ko'rinishda bo'lishini illyustratsiyada berilgan tasviri aniqligi va ravshanligi bilan tushunib oladi.

Bundan tashqari o'quv kitoblarida qanchadan qancha bola uchun notanish sayyoralar,

yovvoyi hayvonlar, meva –sabzavotlar, suv osti saltanati, avtomobil olami, binolar, o'simliklar xullas juda ko'plab narsalarning tasvirlari mavjud. Illyustratsiyalar bolaga o'qiganlarini tushunishga yordam beradi. Tasvirlar asosiy matndan uslubiy jihatdan farq qilmaydigan batafsil sarlavhalar bilan ta'minlanadi.

Bolalar uchun nashr qilinadigan kitobning dizayni o'ziga xos bo'ladi. Uning eng muhim elementi sifatida illyustratsiya o'rin oladi.

G'arbiy Yevropada rasmiy kitoblari XV asrda paydo bo'ladi. O'sha davrda bosmaxonalar ochila boshladi. 17-asrda Yan Amos Komenskiyning (1592-1670) «Suratlarda sezuvchi narsalar dunyosi» kitobi nashr etildi. O'sha vaqtdan beri hozirgacha bolalar nafaqat alifbodan, balki rasmlardan ham o'rgana boshladilar.

Shunday qilib bolalar uchun nashrlarning alohida nashrlar to'plami sifatida shakllanishida illyustratsiyaning o'zini beqiyos, chunki illyustratsiya tufayli bolalar uchun kitob maxsus badiiy tuzilma sifatida qarala boshladi. Olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki maktabgacha yoshdagi bolalarning matni illyustratsiyasiz idrok etish samaradorligi deyarli ikki barobar qisqaradi. Bolalar kitobidagi illyustratsiya va so'z uzviy bog'langan holda bo'ladi. Ularni bir biridan alohida holda bajaradigan funksiyasi pasayadi. Bolalar kitobidagi illyustratsiya tarixi bir necha asrlarga borib taqaladi. Kitob biznesining rivojlanishi illyustratsiyaning rivojlanishi bilan bog'liq. Illyustratsiya bolalar uchun kitob tarkibiga uning zarur elementlaridan biri sifatida kirib bordi. Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki bolalar nashrlarida illyustratsiyalarning o'zini beqiyos.

Adabiyotlar:

1. Sulaymanov A., Abdullayev N. "Tasviriy san'at". 7-sinf uchun darslik-2006y.
2. Sobirov S.T., Sultanov X.E., Ismatov U. Sh. "Illustration and the Influence of Illustrator on Children's Understanding of Fairy Tales and Works of Art in Books". International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192. 02 Apr 2020. 3526-3533 p
3. Gurovich L. M. "Bola vakitob". Moskva: Prosveshchenie, 2002.
4. X. Sultonov. "Rangtasvir" (Akvareldanatyurmortishlash). Ўқۇв қўлланма Т.: "VNESHINVESTROM" МЧЖ, 2019
5. К. В. Макарова. Особенности детской книжной иллюстрации и ее отличия от взрослой. Культура и образование. <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-detskoj-knizhnoy-illyustratsii-i-ee-otlichiya-ot-vzrosloy>
6. Sobirov S.T. "Some factors that impede the development of students' creative abilities in fine art classes". Asian Journal of Research № 1-3, 2020, ISSN 2433-202x. 2020 yil. 214-218 b.
7. Sobirov S.T. "Importance of illustrations for perception of content of the book". European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852. 98-101 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada illyustratsiyalarning kitob mazmuni va matnini yetkazishdagi turli vazifalari, illyustratsiya tufayli bolalar uchun kitob maxsus badiiy tuzilma sifatida qarala boshlangani, bolalar nashrlarida illyustratsiya va tasvirlarning nechog'liq ahamiyatli ekanligi, bolalar uchun kitob nashrlarida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olinishi kerakligi, bolalar uchun nashrlarda kitobdagi bezaklar va illyustratsiyalar rangining ahamiyati, har bir yosh guruhida rasm chizish va tasvirlashni idrok etish o'ziga xos xususiyatlarga egali yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье обсуждаются различные функции иллюстраций в передаче содержания и текста книги, важность иллюстраций и изображений в детских публикациях, возрастные характеристики детей в детских книгах, украшения в детских книгах и важность цвета в иллюстрациях. восприятие рисунка и изображения в каждой возрастной группе выделено своими особенностями.

SUMMARY

The article discusses the various functions of illustrations in conveying the content and text of the book, the book as a special artistic structure for children, the importance of illustrations and images in children's publications, the age

of children in children's books, the decorations in children's books and the importance of color in illustrations, the perception of drawing and depiction in each age group is highlighted with its own characteristics.

TALABALARDA YUKSAK AXLOQ, KASBGA SADOQAT KABI INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH VA MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TO'GARAKLARNING O'RNI

Sobirov S. T.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Sport va chaqiriqqacha harbiy ta'lim" fakulteti "Tasviriy san'at" kafedrasida katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: mafkuraviy immunitet, kasbiy kompetentlik, axloqiy sifat, islohotlar, to'garak, mini to'garak, professional kadr, mohir pedagog.

Ключевые слова: идеологический иммунитет, профессиональная компетентность, моральные качества, реформы, кружок, мини-кружок, профессиональные кадры, квалифицированный педагог.

Key words: ideological immunity, professional competence, moral quality, reforms, circle, mini circle, professional staff, skilled educator.

Bugungi kunda talaba-yoshlarga ta'lim tarbiya berishda ularning ongiga milliy g'oyaning asosiy yo'nalishlarini singdirish badiiy ta'lim vositalaridan samarali foydalanish, o'z ustida ishlash va darsdan tashqari to'garaklarda o'z kasbi sir-asrorlarini o'rganish, talabalarning ma'naviy, estetik dunyoqarashlarini shakllantirish bilan birga ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi zamonda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar dunyo siyosiy maydonidagi salmoqli axamiyat kasb etuvchi jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. O'z navbatida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda - mafkuraviy immunitetni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amalga oshirish tizimini aniq belgilash va hayotga tatbiq etishni ta'minlash kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida yoshlar bilan ishlash, ularda yuksak axloq, kasbga sadoqat kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasida:

- ta'lim muassasalari tahsil oluvchilarida darsda (auditoriya) va maktabdan tashqari (auditoriyadan tashqari) bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, fan va boshqa qiziqishlari bo'yicha klublar (to'garaklar), sport seksiyalariga jalb etish xamda ularning jamoat ishlaridagi ongli ravishda ishtirokini ta'minlash borasidagi ishlarni kuchaytirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar sifatida belgilab qo'yilgan. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda qiziqishlari bo'yicha to'garaklarga qatnashish talaba yoki o'quvchilarning kelgusidagi hayotiy faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etishi aniq. Yuqoridagi davlatimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalarning amaldagi tadbir'i sifatida Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishida tashkillashtirilgan ilmiy va ijodiy to'garaklarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Muntazam faoliyat olib borayotgan to'garaklar va ularning tarkibida ochilgan mini to'garaklarning faoliyati talaba yoshlarning ta'lim-tarbiya va hayotiy faoliyatlariga o'zgacha mazmun kiritdi desak adashmaymiz.

«Ijodiy tafakkur» ilmiy to'garagida talaba yoshlarga maqola, tezis yozish va ilmiy ish qilish sir-asrorlari o'rgatiladi. To'garakni dotsent X.E.Sultonov olib boradi.

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан
филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ» № 3-2**
Нөкис — 2021

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Н. Абдукаримов

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 12.03.2021. Форматы 60x84^{1/16}

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шэрти б.т. Нашр. т. Нусқасы 2000. Буйыртпа №

«NISO POLIGRAF» ШК босмахонасида босилди.

Тошкент ш., Ҳ. Бойқаро, 51

